



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

Surxondaryo viloyatida
kichik tadbirkorlik

2024-yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


2024-yilning 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **19,7** mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **1,8** mingtaga kamaygan yoki **8,3** % ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **9,1** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


2024-yilning yanvar-martida **1031** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **11,3** % ga ko'p demakdir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2020-2024-yillar 1-aprel holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



2024-yilning 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2023-y.		2024-y.
21 526	Surxondaryo viloyati	19 735
3 908	Termiz sh	3 621
1 086	Angor	1 011
521	Bandixon	506
948	Boysun	838
2 530	Denov	2 408
1 575	Jarqo'rg'on	1 489
1 008	Qiziriq	884
1 458	Qumqo'rg'on	1 203
807	Oltinsoy	783
969	Muzrabot	841
1 216	Sariosiyo	1 110
1 407	Termiz	1 267
1 172	Uzun	1 050
1 515	Sherobod	1 435
1 406	Sho'rchi	1 289

2024-yil 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **19 735** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **1 031** tani tashkil etdi.

2024-yilning 1-aprel holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Termiz shahrida **3 621** tani yoki jamiga nisbatan **18,3 %** ni tashkil etdi.

1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda




Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*

Termiz	18,4
Termiz sh.	17,9
Boysun	9,9
Bandixo	9,9
Shërobod	9,7
Oltinsoy	8,6
Angor	8,6
Qiziriq	8,1
Uzun Muzrabot	7,9
Denov	7,8
Jarqo'rg'on	7,7
Sho'rchi	7,6
Sariosiy	7,5
Qumqo'rg'on	7,0

Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1-aprel holatiga, birlikda



2024-yil 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **9,1** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan **0,5** birlikka ko'paygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich Termiz tumanida **18,4** birlik, Termiz shahrida **17,9** birlik, Boysun tumanida **9,9** birlik, Bandixon tumanida **9,9** birlik va Sherobod tumanida **9,7** birlikka yetdi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Termiz tumani
- 18,4 birlik.

O'rta ko'rsatkich

Qiziriq tumani
- 8,1 birlik.

Eng past ko'rsatkich

Qumqo'rg'on tumani
- 7,0 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Termiz tumanida 18,4 birlik, Termiz shahrida 17,9 birlik, Boysun tumanida 9,9 birlik, Bandixon tumanida 9,9 birlik, Sherobod tumanida 9,7 birlik, Oltinsoy tumanida 8,6 birlik, Angor tumanida 8,6 birlik, Qiziriq tumanida 8,1 birlik va Uzun tumanida 8,0 birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024-yil 1-aprel holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Sherobod tumani

Boysun tumani

Termiz tumani

9,7

9,9

9,9

17,9

18,4

Bandixon tumani


Termiz shahri

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

2023-y.		2024-y.
39	Angor	43
21	Bandixon	18
20	Boysun	35
82	Denov	164
71	Jarqo'rg'on	98
44	Muzrabot	27
50	Oltinsoy	48
74	Qiziriq	52
43	Qumqo'rg'on	56
55	Sariosiyo	55
109	Sherobod	77
63	Sho'rchi	73
40	Termiz	52
173	Termiz sh.	205
42	Uzun	28

2024-yilning yanvar-martida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da




2024-yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Termiz shahri - **19,9** %, Denov tumani - **15,9** %, Jarqo'rg'on tumani - **9,5** %, Sherobod tumani - **7,5** %, Sho'rchi tumani - **7,1** %, Sariosiyo tumani - **5,3** % va Qiziriq tumani - **5,0** % hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023-2024-yillarning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2024-yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 373 ta, sanoatda 265 ta hamda yashash va ovqatlanishda 119 ta yangidan tashkil etilgan.


Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxona va mikrofirma Termiz shahrida 205 ta, Denov tumanida 164 ta va Jarqo'rg'on tumanida 98 ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024-yillarning yanvar-mart davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik



So'nggi yillarda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2020-2024-yillarning yanvar-mart oylari davomida jami **6 283** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida - **2 307** (yoki **36,7 %**) ta, xizmatlar sohasida - **1 247** (yoki **19,8 %**) ta, sanoat sohasida - **1 231** (yoki **19,6 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **1 034** (yoki **16,5 %**) ta va qurilish sohasida - **464** (yoki **7,4 %**) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Investitsiya



Qurilish



Chakana savdo




Xizmatlar



Yuk tashish



Yuk aylanmasi



Yo'lovchi tashish



Yo'lovchi aylanmasi




Eksport



Import

■ 2023-y. ■ 2024-y.




■ 2023-y. ■ 2024-y.2


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-mart oylarida), % da

2024-yilning yanvar-martida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **69,5** % ni tashkil qilib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan **1,1** punktga ko'paygan. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining ko'payishi bilan ifodalanadi.




2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da




2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi tashishda **97,9** % ni, yo'lovchi aylanmasida **98,4** % ni, chakana savdoda **96,9** % ni, qishloq xo'jaligida **96,4** % ni, yuk aylanmasida **96,2** % ni va qurilishda **93,7** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-mart oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-mart oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2024-yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

Sherobod	190,7
Termiz sh.	167,7
Sho'rchi	159,8
Muzrabot	131,5
Denov	108,7
Angor	68,1
Oltinsoy	53,9
Termiz	45,1
Jarqo'rg'on	43,6
Qumqo'rg'on	42,0
Uzun	37,9
Sariosiyo	32,2
Bandixon	28,2
Boysun	24,8
Qiziriq	16,4

2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **1 150,6** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Sherobod tumani (**190,7** mlrd. so'm), Termiz shahri (**167,7** mlrd. so'm), Sho'rchi (**159,8** mlrd. so'm), Muzrabot (**131,5** mlrd. so'm) va Denov (**108,7** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Qiziriq tumanida (**16,4** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, trln. so'm

2024-yil yanvar-martida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 53,7 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Bandixon tumani (100,0 %), Muzrabot tumani (100,0 %), Boysun tumani (96,1 %), Angor tumani (94,5 %), Oltinsoy tumani (88,2 %), Sherobod tumani (68,9 %), Sho'rchi tumani (68,7 %), Termiz shahri (66,0 %), Denov tumani (47,7 %) va Termiz tumani (42,3%) tashkil etdi.

Bandixon		100,0
Muzrabot		100,0
Boysun		96,1
Angor		94,5
Oltinsoy		88,2
Sherobod		68,9
Sho'rchi		68,7
Termiz sh.		66,0
Denov		47,7
Termiz		42,3
Sariosiyo		39,3
Uzun		37,5
Qumqo'rg'on		20,8
Jarqo'rg'on		17,8
Qiziriq		17,4

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024-yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Termiz sh.	485,4	98,7
Denov	156,2	98,8
Boysun	74,1	99,7
Sariosiyo	114,5	65,5
Jarqo'rg'on	76,9	96,4
Termiz	110,9	97,7
Sherobod	76,4	93,8
Angor	96,2	96,5
Muzrabot	72,9	85,3
Qiziriq	36,8	98,8
Qumqo'rg'on	68,1	97,6
Sho'rchi	34,7	95,8
Oltinsoy	27,2	100,0
Uzun	35,0	96,5
Bandixon	25,0	97,3

hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

2024-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **1 490,2** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **93,7 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan **110,8 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Termiz shahri (**485,4** mlrd. so'm), Denov (**156,2** mlrd. so'm), Sariosiyo (**114,5** mlrd. so'm), Termiz (**110,9** mlrd. so'm), Angor (**96,2** mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (**76,9** mlrd. so'm) va Sherobod (**76,4** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2019-2024-yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda



2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **2 878,1** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **46,6 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023-yilning mos davriga nisbatan **168,8 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Sherobod (**312,2** mlrd. so'm), Denov (**269,6** mlrd. so'm), Muzrabot (**243,4** mlrd. so'm), Qumqo'rg'on (**221,4** mlrd. so'm), Termiz shahri (**211,3** mlrd. so'm), Angor (**192,2** mlrd. so'm), Oltinsoy (**190,9** mlrd. so'm), va Sho'rchi (**183,1** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2019-2024-yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




■ ulushi, % ■ hajmi, mlrd. so'm

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati

2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **3 535,6** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **96,4** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023-yilning mos davriga nisbatan **103,9** % ni tashkil qildi.

2019-2024-yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Denov (**518,7** mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (**334,0** mlrd. so'm), Sariosiyo (**320,8** mlrd. so'm), Qumqo'rg'on (**320,2** mlrd. so'm), Sherobod (**312,4** mlrd. so'm) va Uzun (**295,8** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.


2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Termiz sh.	11,6	95,6
Bandixon	71,9	99,6
Oltinsoy	81,7	99,1
Qiziriq	86,5	99,6
Termiz	194,6	83,2
Sho'rchi	223,2	99,6
Boysun	236,9	96,7
Muzrabot	239,1	99,6
Angor	288,2	99,5
Uzun	295,8	96,0
Sherobod	312,4	88,6
Qumqo'rg'on	320,2	98,7
Sariosiyo	320,8	97,8
Jarqo'rg'on	334,0	99,2
Denov	518,7	97,6

hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

2019-2024-yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **4 684,1** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **96,9** % ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023-yilning tegishli davriga nisbatan **110,1** % ni tashkil qildi.

2024-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Bandixon	75,2	99,1
Termiz	99,5	97,4
Sariosiyo	200,0	99,1
Boysun	201,4	99,5
Muzrabot	210,2	99,2
Oltinsoy	213,8	99,0
Qiziriq	216,1	99,5
Uzun	224,1	99,1
Angor	224,1	99,3
Qumqo'rg'on	227,1	99,0
Jarqo'rg'on	248,6	97,4
Sherobod	289,2	97,5
Sho'rchi	477,2	98,6
Termiz sh.	775,8	92,6
Denov	1 001,8	95,4

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Denov (**1 001,8** mlrd. so'm), Termiz sh. (**775,8** mlrd. so'm), Sho'rchi (**477,2** mlrd. so'm), Sherobod (**289,2** mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (**248,6** mlrd. so'm), Qumqo'rg'on (**227,1** mlrd. so'm) va Angor (**224,1** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2019 va 2024-yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, mlrd. so'm




hajmi, mlrd. so'mda

ulushi, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024-yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda

Termiz sh	576,0
Denov	336,8
Jarqo'rg'on	175,3
Sariosiyo	170,6
Sherobod	170,1
Sho'rchi	163,7
Qo'mqo'rg'on	160,0
Muzrabot	150,6
Angor	136,4
Oltinsoy	133,6
Termiz	133,4
Uzun	131,2
Qiziriq	128,6
Boysun	106,2
Bandixon	78,5

2024-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **2 750,8** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **65,7 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan **113,8 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Termiz shahri (**576,0** mlrd. so'm), Denov (**336,0** mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (**175,3** mlrd. so'm), Sariosiyo (**170,6** mlrd. so'm), Sherobod (**170,1** mlrd. so'm), Sho'rchi (**163,7** mlrd. so'm) va Qumqo'rg'on (**160,0** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan turlari
(yanvar-mart oylarida)

1432,2	Savdo xizmatlari	52,1
591,8	Transport xizmatlari	21,5
149,1	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	5,4
127,8	Shaxsiy xizmatlar	4,6
102,9	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	3,7
90,3	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3,3
76,7	Ijara xizmatlari	2,8
60,8	Boshqa xizmatlar	2,2
37,7	Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,4
35,6	Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1,3
21,5	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	0,8
22,3	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	0,8
2,0	Moliyaviy xizmatlar	0,1

Hajmi, mlrd. so'mda

Ulushi, foizda


Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida – **52,1** % (1 432,2 mlrd. so'm), transport xizmatlarida - **21,5** % (591,8 mlrd. so'm), yashash va ovqatlanish xizmatlarida – **5,4** % (149,1 mlrd. so'm) va shaxsiy xizmatlarda - **4,6** % (127,8 mlrd. so'm) ni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarda - **0,1** % (2,0 mlrd. so'm) kuzatildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-mart oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024-yilning yanvar-martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **41 591,2** ming AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **77,7 %** ini tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Angor	6864,1	100,0
Muzrabot	6151,4	100,0
Jarqo'rg'on	5197,4	61,2
Qumqo'rg'on	4086,6	100,0
Termiz sh.	3631,9	86,1
Qiziriq	1974,5	61,2
Oltinsoy	1968,1	95,4
Sherobod	1890,9	76,8
Sho'rchi	1887,7	95,0
Denov	1768,2	30,9
Bandixon	1620,6	100,0
Sariosiyo	1581,0	100,0
Uzun	1193,6	41,2
Boysun	928,6	100,0
Termiz	510,7	21,2


hajmi, ming. AQSH dollar

ulushi, % da

2024-yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Angor tumanida - **100,0 %**, Muzrabot tumanida - **100,0 %**, Qumqo'rg'on tumanida - **100,0 %**, Bandixon tumanida - **100,0 %**, Sariosiyo tumanida - **100,0 %**, Boysun tumanida - **100,0 %**, Oltinsoy tumanida **95,4 %**, Sho'rchi tumanida **95,0 %**, ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Termiz tumanida - **21,2 %**, ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2024-yilning yanvar-martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **39 491,3** ming AQSH dollarini yoki jami importning **81,8** % ini tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Qiziriq tumanida - **100,0** %, Qumqo'rg'on tumanida - **100,0** %, Bandixon tumanida - **100,0** %, Muzrabot tumanida - **100,0** %, Boysun tumanida - **100,0** %, Uzun tumanida - **100,0** %, Sho'rchi tumanida - **100,0** %, Denov tumanida - **100** %, Angor tumanida - **100,0** % va Sherobod tumanida - **100** % ni tashkil etdi.

Qiziriq	100,0
Qumqo'rg'on	100,0
Bandixon	100,0
Muzrabot	100,0
Boysun	100,0
Uzun	100,0
Sho'rchi	100,0
Denov	100,0
Angor	100,0
Sherobod	100,0
Termiz sh.	97,6
Oltinsoy	91,7
Jarqo'rg'on	84,7
Termiz	77,1
Sariosiyo	15,8


Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati



92,6 %

Yuk
tashishda


2024-yilning yanvar-martida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **92,6 %** ni tashkil etdi. 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **106,4 %** ni tashkil qildi.



96,2 %

Yuk
aylanmasida


2024-yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,2 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **109,9 %** ni tashkil qildi.



97,9 %

Yo'lovchi
tashishda

2024-yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,9 %** ni tashkil etib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,3 %** ni tashkil qildi.




98,4 %

Yo'lovchi
aylanmasida

2024-yilning yanvar-martida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **98,4 %** ni tashkil etib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,6 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2024-yil I chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma **1097** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **314 (28,7 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **707 (64,4 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. qolgan **76 (6,9 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda - **42,8 % (470 ta)**, xizmatlar sohasida - **27,9 % (306 ta)**, sanoatda - **11,9 % (131 ta)**, qurilishda - **9,8 % (107 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **7,6 % (83 ta)**ni tashkil etdi.

2024- yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

382,2	Termiz shahar	18,3
44,3	Angor	2,1
136,8	Bandixon	6,5
64,7	Boysun	3,1
421,1	Denov	20,2
191,1	Jarqo'rg'on	9,1
21,0	Qiziriq	1,0
104,7	Qumqo'rg'on	5,0
65,7	Oltinsoy	3,1
45,3	Muzrabot	2,2
91,4	Sariosiyo	4,4
156,4	Termiz	7,5
56,3	Uzun	2,7
180,4	Sherobod	8,6
130,7	Sho'rchi	6,2


Hajmi, mlrd. so'mda

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Termiz shahri (**181** ta), Denov (**143** ta), Jarqo'rg'on (**90** ta), Sho'rchi (**81** ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillarning I choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilning I choragida 267 tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning I choragiga kelib esa 314 taga yetgan yoki 2019-yilning I choragiga nisbatan 47 taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilda 510 ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning yanvar-martida 707 ta yoki 197 taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019-yilda 22 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 76 tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan 54 taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillarning I choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilanish deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilning I choragida **639** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning I choragiga kelib esa **471** taga yetgan yoki 2019-yilga nisbatan **168** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilning I choragida **145** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning I choragida **476** ta yoki **331** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning soni esa 2019-yilning I choragida **10** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning I choragiga kelib, bu ko'rsatkich **43** tani tashkil etib, **33** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillarning I choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019-yilning I choragida 33,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilga kelib esa 28,6 % ga yetgan yoki 2019-yilga nisbatan 4,8 % birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2019-yilda 63,8 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning I choragida 64,4 % yoki 0,6 % birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019-yilda 2,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib, bu ko'rsatkich 7,0 % ga etgan yoki 4,2 % ga ko'paygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillar I choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019-yilning I choragida **80,0** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilga kelib esa **42,9** % ga yetgan yoki 2019-yilning I choragiga nisbatan **37,1** % kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning ulushi 2019-yilning I choragida **14,5** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning I choragida **43,4** % yoki **28,9** % oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019-yilning I choragida **5,5** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning I choragiga kelib, bu ko'rsatkich **13,7** % yoki **8,2** % oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2024-yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilish sohasida - **33,7 %** ni, xizmatlar sohasida - **30,4 %** ni va savdoda - **29,6 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **80,7 %** ni, sanoatda - **67,2 %** va savdoda - **64,0 %** ni va ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi xizmat sohasida - **8,5 %** ni, qurilishda - **6,5 %** ni va savdoda - **6,4 %** ni, tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2024-yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda - **65,4** % ni sanoatda - **64,1** % ni, xizmatlar - **60,8** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **47,0** % ni xizmatlar sohasida - **36,9** % ni, va savdoda - **36,0** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi savdoda - **4,0** % ni qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **3,6** % ni va qurilish sohasida - **2,8** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	34,5	52,5	13,0
Band bo'lganlar soni	27,2	61,5	11,3
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	32,0	55,3	12,7
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	31,3	56,5	12,2
Raqobat muhiti	41,0	46,9	12,1

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	58,1	38,5	3,4
Band bo'lganlar soni	43,7	53,0	3,3
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	52,5	44,0	3,5
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	50,7	45,6	3,7
Raqobat muhiti	53,8	42,8	3,4


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2024-yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi bo'limi

Tel.: +998 (76) 225-65-68